

***SUD HUJJATLARI VA BOSHQA ORGANLAR HUJJATLARINI IJRO ETISH
TIZIMIDA MAJBURIYATLAR REESTRI INSTITUTINING MAZMUNI,
HUQUQIY MOHIYATI VA AHAMIYATI***

I.S.Ziyauatdinov

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi
tinglovchisi*

I.S.Ziyauatdinov

*Master's Student of the Academy of Law Enforcement of the Republic of
Uzbekistan*

Annotatsiya: Maqolada sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimida joriy etilayotgan Majburiyatlar reestri institutining mazmuni, huquqiy mohiyati va amaliy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur institutning ijro samaradorligini oshirishdagi o'rni, uning huquqiy ta'sir mexanizmi hamda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: majburiyatlar reestri, ijro huquqi, sud hujjatlari ijrosi, qarzdor, ijro samaradorligi, huquqiy institut.

***THE CONTENT, LEGAL NATURE, AND SIGNIFICANCE OF THE
INSTITUTION OF THE REGISTER OF OBLIGATIONS IN THE SYSTEM
OF ENFORCEMENT OF COURT DECISIONS AND DOCUMENTS OF
OTHER AUTHORITIES***

Abstract: The article provides a scientific and theoretical analysis of the content, legal nature, and practical significance of the institution of the Register of Obligations being introduced in the system of enforcement of court decisions and documents of other authorities. It also examines the role of this institution in

improving enforcement efficiency, its legal impact mechanisms, and presents a comparative analysis based on the experience of foreign countries.

Keywords: *register of obligations, enforcement law, enforcement of court decisions, debtor, enforcement efficiency, legal institution.*

Huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri sud hokimiyati chiqargan qarorlarning so‘zsiz va to‘liq ijro etilishini ta‘minlash hisoblanadi. Sud orqali huquq va qonuniy manfaatlar tiklangan bo‘lsa-da, ularning amalda ijro etilmasligi fuqarolarning odil sudlovga bo‘lgan ishonchini susaytiradi, qonun ustuvorligi prinsipiga putur yetkazadi. Shu bois sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, sud hujjatlari barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Mazkur qoida sud qarorlarining ijro etilishi davlat majburiyati ekanini belgilab beradi. Shu bilan birga, “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ham ijro jarayonining huquqiy asoslari, davlat ijrochilarining vakolatlari hamda qarzdor va undiruvchining huquq va majburiyatlari mustahkamlab qo‘yilgan.

Ammo amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijro hujjatlarining muayyan qismi qarzdorning mol-mulki yoki daromad manbalari mavjud emasligi sababli uzoq muddat bajarilmay qolmoqda. Bunday holatlarda ijro ishi qonunga muvofiq tugatiladi yoki to‘xtatiladi, biroq majburiyatning o‘zi huquqiy ma’noda barham topmaydi. Ana shu nuqtada ijro jarayonining uzluksizligini ta‘minlaydigan, qarzdorning ijro majburiyatini doimiy huquqiy nazoratda ushlab turuvchi institutga ehtiyoj yuzaga keladi. Majburiyatlar reestri instituti aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Huquqshunos Marta Isidro bu borada fikr yuritarkan, qarz majburiyatlarining ijrosi va qarzdorning huquqiy holatini nazorat qilish

mexanizmlarini belgilab berish, qarzdorning aktivlari topilmagan holatlarda ham ijro jarayonining huquqiy ta'sirini saqlab qolish vositalarini nazarda tutish zarurligini ta'kidlaydi.

Majburiyatlar reestri — bu sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari asosida yuzaga kelgan bajarilmagan majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, vakolatli davlat organi tomonidan yuritiladigan markazlashtirilgan elektron axborot tizimidir. Unda qarzdorning ijro hujjatlari bo'yicha qarz summasi, ijro harakatlarining holati, qo'llanilgan cheklovlar, ijro harakatlari tarixi hamda boshqa huquqiy ahamiyatga ega ma'lumotlar saqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud hujjatlari ijrosini ta'minlashga qaratilgan farmon va qarorlarida Majburiyatlar reestri ijro tizimini raqamlashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim institut sifatida belgilangan. Xususan, mazkur reestr orqali ijro hujjatlari bo'yicha ma'lumotlarni yagona bazaga jamlash, davlat organlari va bank muassasalari bilan axborot almashinuvini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan.

Majburiyatlar reestri institutining huquqiy mohiyatini tahlil qilish uni ijro huquqining mustaqil instituti sifatida baholash imkonini beradi. **Birinchidan**, u ijro majburiyatlarini rasmiy hisobga olish va huquqiy monitoring qilish institutidir. Reestr orqali har bir ijro hujjati bo'yicha majburiyatning huquqiy taqdiri nazorat qilinadi, uning bajarilishi yoki bajarilmasligi davlat tomonidan doimiy hisobda saqlanadi.

Ikkinchidan, majburiyatlar reestri qarzdorga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarining asosiy manbai hisoblanadi. Qarzdorning reestrga kiritilishi unga nisbatan muayyan huquqiy cheklovlarning saqlanib qolishiga olib keladi. Bu holat ijro majburiyatini bajarishdan qochish imkoniyatini cheklaydi hamda qarzdorni majburiyatni ixtiyoriy ravishda bajarishga rag'batlantiradi. Mazkur jihat ijro huquqida profilaktik va tarbiyaviy funksiyani ham bajaradi.

Uchinchidan, majburiyatlar reestri ijro jarayonida huquqiy uzluksizlik prinsipini ta'minlaydi. An'anaviy ijro amaliyotida ijro ishi mol-mulk topilmaganligi sababli tugatilganidan so'ng, qarzdorga nisbatan huquqiy ta'sir

amalda barham topadi. Reestr esa ijro ishi tugatilgan taqdirda ham majburiyatning huquqiy mavjudligini saqlab qoladi va qarzdorning mulkiy holati o'zgarganida ijro harakatlarini avtomatik yoki soddalashtirilgan tartibda qayta tiklash imkonini beradi.

O'zbekiston qonunchiligi nuqtai nazaridan mazkur institut ijro jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tizimli yechim hisoblanadi. "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonun normalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qonun ijro harakatlarini amalga oshirish tartibini belgilagan bo'lsa-da, ijro tugatilganidan keyin majburiyatni uzoq muddatli monitoring qilish mexanizmi yetarli darajada rivojlanmagan. Majburiyatlar reestri esa mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan institut sifatida namoyon bo'ladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi ham bunday institutlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Buyuk Britaniyada sud qarorlari asosidagi qarzlar maxsus reestrlarda qayd etiladi va ular qarzdorning moliyaviy nufuziga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Britaniya huquq tizimini qiyosiy tahlil qilgan P. McKenzie Skene ham sud qarorlari ijrosida reestrlar institutining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, ijro ishi tugatilgan yoki to'xtatilgan holatlarda ham qarz majburiyatining reestrda saqlanishi kreditor manfaatlarini uzoq muddatli himoya qilish imkonini beradi va sud qarorining huquqiy qiymatini pasaytirib yubormaydi. Olim reestr tizimini "ijro majburiyatining huquqiy xotirasi" deb baholaydi, chunki u ijro jarayonini vaqt jihatidan cheklanmagan huquqiy ta'sir bilan ta'minlaydi.

Shuningdek, huquqshunos F.Tairov majburiyatlar reestri haqida so'z yuritarkan, Gruziya qonunchiligida qarz dorlarni hisobga olish va monitoring qilish tizimlari joriy etilgan bo'lib, bu sud qarorlarini ijro etish samaradorligini oshirish va undiruvchilarning huquqlarini himoya qilish imkonini berishini, Gruziyaning "Ijro ish yuritish to'g'risida"gi Qonunining 19-1-moddasiga muvofiq Qarzdorlar reestri pul talabini ijro etish ta'minlangunga qadar qo'llaniladigan vosi ta'bo'lib, 2010 yil 1 yanvardan boshlab ijro ishi boshlangan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlar to'g'risidagi tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olishini, ushbu reestrda davlat organlari, munitsipalitetlar,

munitsipalitet organlari va ta'minot bilan ta'minlangan qarzdorlar kiritilmasligini, qarzdor ijro ishi boshlangan zahotiyiq reestrga kiritilishini, reestrga kiritish qarzdorni pul undirish majburiyati dan ozod etmasligini, reestr ma'lumotlari ochiq hisoblanishini, Milliy ijro byuroosi davlat organlari uchun reestr ma'lumotlariga kirish imkoniyatini ta'minlaydi hamda ularni doimiy ravishda yangilab borishini, Milliy ijro byuroosi va ijro byurolari vakolatli shaxslari reestr ma'lumotlari asosida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli ma'lumotnoma va iqtiboslarni, ariza topshirilgandan keyingi ish kunidan kechiktirmay, taqdim etilishini, Gruziya xalqaro tajribaga asoslangan holda qarz dorlarni monitoring qilish tizimini joriy etganligini, bu esa sud qarorlarini ijro etish jarayonining shaffof ligi va samaradorligini oshirishga, shuningdek, fuqarolik muomalasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Majburiyatlar reestri institutining amaliy ahamiyati shundaki, u ijro tizimini faqat jazolovchi mexanizm emas, balki prognoz qilish, profilaktika va rag'batlantirishga asoslangan huquqiy tizimga aylantiradi. Reestr orqali davlat ijrochilari qarzdorning umumiy majburiyatlar yukini aniqlaydi, ijro harakatlarini samarali rejalashtiradi va ijro natijadorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Majburiyatlar reestri instituti sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimida strategik ahamiyatga ega bo'lgan zamonaviy huquqiy institut hisoblanadi. U ijro jarayonida huquqiy uzluksizlikni ta'minlaydi, sud qarorlarining real ijrosini kuchaytiradi hamda qonun ustuvorligi prinsipini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Mazkur institutni qonunchilikda yanada mustahkamlash va uni amaliy jihatdan takomillashtirish O'zbekiston ijro tizimini rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
(murojaat qilingan sana 10.12.2025 yil)

2. Isidro M. Recognition and Enforcement of Judgments // Comparative Procedural Law and Justice (Part XIV Chapter 7), cplj.org/a/14-7, accessed 23 October 2024

3. Tairov F. Majburiy ijro tizimini takomillashtirishda majburiyatlar reestri instituti // “ODILLIK MEZONI” / № 2 / 2025